

**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Roman-german filologiyasi fakulteti Fransuz tili nazariy fanlar kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Raximova Gulsanam Ashirbekovna tomonidan Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani 14 va 29-umumiy o'rta ta'lif maktablari pedagog-kadrlarining bilim darajasini oshirish maqsadida tashkil qilingan o'quv kurslari va ko'rsatilgan metodik yordam to'g'risida**

### **HISOBOT**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi A.Abduvaxitov rahbarligida joriy yilning 7 aprel kuni o'tkazilgan yig'ilishda Toshkent shahri va viloyati, Sirdaryo viloyatlaridan biriktirilgan maktablar pedagog-kadrlari bilim darajasini oshirish maqsadida tashkil qilingan o'quv kurslari uchun oliy ta'lif muassasasi professor-o'qituvchilari orasidan tajribali, salohiyatli va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni mukammal o'zlashtirgan hamda xorijiy tajribaga ega kamida 20 nafar pedadog xodimlarni suhbat asosida saralab olish borasoda berilgan topshiriqlar, shuningdek shu bo'yicha O'zDJTU rektori U.Azizov buyrug'i ijrosini ta'minlash uchun joriy yilning 14 aprel kuni Roman-german filologiyasi fakulteti Fransuz tili nazariy fanlar kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Raximova Gulsanam Ashirbekovna tomonidan Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani 14 va 29-umumiy o'rta ta'lif maktablariiga tashrif buyurildi.

Tashrifdan maqsad yuqorida manzili ko'rsatilgan maktablarda xorijiy tillar xususan, fransuz tilini o'qitish holatini o'rganish va zarur holatda pedagog-kadrlar bilim darajasini oshirish edi. Shu maqsadda dars mashg'ulotlarida kuzatuv ishlari olib borildi. Xususan, dars jadvali asosida Sayxunobod tumani Xalq Ta'limi Bo'limi (XTB)ga qarashli 14-umumiy o'rta ta'lif maktab fransuz tili o'qituvchisi Tursunqulov Shodmonqulning 5 va 6-sinflarda olib dara mashg'ulotlari kuzatildi.

Dars mashg'ulotlari o'rta saviyada o'tdi. Shuni ta'kidlash kerakki, o'quvchilar bilimga chanqoq va o'ta faol darajada qatnashishdi. Oqituvchi bilim va saviya jihatidan yetarlicha salohiyatga ega, ammo darsni tashkillashtirishda ba'zi hollarda juz'iy kamchiliklarga yo'l qo'yildi. Masalan, o'qituvchi asosan berilgan matnni

o'qitish va shu asosida savol'javob qilish bilan chegaralandi. Vaholanki, kichik guruhlarda ishlatalish va ayniqsa, o'quvchilar bajargan mashq va vazifalardan so'ng baholanishi kerak edi.

Bundan tashqari, kuzatuv va o'rghanish jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki, o'quvchi va hatto o'qituvchida ham darslik yo'q edi deyarli. Bor darsliklar ham o'qituvchi fikriga ko'ra eskirgan va zamonaviy talablarga javob bermaydi, audio disklari mavjud emas, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yetishmaydi (bitta xonada televizor mavjud, ya'ni ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor muovini xonasida), proyektor, sensor doska, kompyuter va eshitish moslamalari umuman mavjud emas, natijada o'quvchilar zamon talabiga mos ravishda bilim ololmayapti.



Shundan so'ng Sayxunobod tumani XTBga qarashli 14-sonli umumiylar ta'lim maktabiga tashrif buyurildi. Ushbu maktab markazdan ancha yiroqda joylashgan bo'lib, ushbu maktabga boorish yo'llaridan tortib sharoitlari ham shunga mos ravishda ancha achinarli ahvolda edi. Darslarda darsliklar umuman yo'q hisobi. Birgina o'qituvchining o'zidagina darslik mavjud bo'lib u ham to'liq shaklda emas, o'quvchi kitobi (le livre de l'élève), mashqlar daftari (le cahier d'activités) yoki audio disk ham umuman mavjud emas. 10 sinf misolida tahlil qiladigan bo'lsak, o'quvchilarning birortasida darslik mavjud emas. Maktab ham remont talab ahvolda.

Dars mashg'ulotlari xonasi ham talablarga javob bermaydi. Ushbu maktabda ham birgina fransuz tili xonasi mavjud bo'lib xonalar yetishmasligi uchun ushbu xonada boshqa fan mashg'ulotlari ham olib borilishi natijasida fransuz tili darsi boshqa xonalarda olib borilmoqda.

O'qituvchi fikri bilan qiziqilganda, nafaqa yoshida ekanligi, boshqa mutaxassis yo'qligi va yetishmasligi, maktab markazdan ancha uzoqda joylashgani va yo'llar ham talabga javob bermasligi bois xorijiy tillardan birorta mutaxassis hatto 100% ustama to'lanishi evaziga ham kelmayotganini, kelganlari ham ko'p vaqt o'tmay ketib qolishi, darsliklar tanqisligi, mavjud darsliklar talablarga umuman javob bermasligi bularning oqibatida o'quvchilarda xorijiy tillarga, xususan fransuz tiliga bo'lgan motivatsiya so'nib borayotganidan nolib gapirdi.

Har ikkala maktab rahbariyati, pedagog-xodimlari va o'quvchilarining fikri deyarli bir xil edi. Ular ham zamon talabiga xos va mos ravishda yuqori saviyadagi mutaxassis va bilimga ega bo'lismaga, yuqori axborot-telekommunikatsiya texnologiya vositalaridan foydalangan holda dars mash'ulotlari olib borilishiga, internetdan foydalanib milliy va dunyo so'nggi yangiliklari va hodisalaridan to'g'ridan-to'g'ri ulanib boxabar bo'lismaga haqlari bor ekanligini ta'kidlashdi.



Qolaversa, darslikar borasida jiddiy o'zgarishlar qilinishiga va xorijiy tillar (fransuz, ingliz va hatto ispan tillar)dan yaxshi mutaxassislar, metodik va amaliy ko'mak, o'rganayotgan til millati vakiliga bo'lgan ehtiyojlari to'g'risidagi taklif va umidlarini tegishli vakolatli organlarga yetkazishni so'rashdi.



Shundan so'ng, o'qituvchi va o'quvchilar uchun o'tilgan mavzularni yanada mustahkamlash va ularda motivatsion ruhni yangilash maqsadida mahorat darsi tashkil qilindi.



O'quvchilar katta qiziqish bilan o'ta faol darajada darsda qatnashishdi va iloji bo'lsa bu kabi hamkorlikdagi dars mashg'ulotlarini har hafta yoki oyda tashkillashtirib turish istagini bildirishdi.



Roman-german filologiyasi fakulteti rahbariyati va Fransuz tili nazariy fanlar kafedrasi tashabbusi bilan tashkil qilingan fransuz tiliga doir ilmiy, badiiy va publitsistik metodik qo'llanmalar, adabiyotlar va ko'rgazmali qurollar to'plami ushbu maktablarga taqdim etildi.

Tomonlar o'zaro bir-biriga ko'rsatilgan metodik va amaliy ko'mak, takliflar borasidagi hamkorliklar uchun minnatdorchilik bildirishdi. Kelgusida takliflardan kelib chiqqan holda malaka oshirish o'quv kurslari tashkil etishga kelishib olindi.

**Fakultet dekani**

**A.Xalillayev**

**Fransuz tili nazariy fanlar**

**kafedrasi dotsenti, f.f.f.d. (PhD) dots.**

**G.Raximova**